



OMON MATJOD IJODIDA AYRIM SHEVA ELEMENTLARI

Ilhomboyeva Mahliyo

*UrDU Filologiya fakulteti Filologiya va tillarni
o'qitish: o'zbek tili ta'llim yo'nalishi 223-guruh talabasi
ilhombayevamahliyo@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada Omon Matjon she'rlarida qo'llangan Xorazmlahjasiga xos so'zlar tahvilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Antroposentrik tilshunoslik, sheva, lahja.

Абстрактный. В статье анализируются слова, характерные для Хорезмлахжи, используемые в стихах Амона Матжона.

Ключевые слова: антропоцентрическая лингвистика, диалект, диалект.

Abstract. The article analyzes the words characteristic of Khorazmlahja used in Amon Matjon's poems.

Key words: Anthropocentric linguistics, dialect, dialect.

Antroposentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturalogiya tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antroposentrik paradigma asosida o'rganuvchi sohadir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birlklari tadqiq etiladi²³.

Ijodkorlar o'zлари yashaydigan muhitdan ajralmagan holda o'z asarlarida ham shu muhitni gavdalantirish uchun, hayotiy ishonarli va jonli tasvirlash maqsadida shevaga xos so'zlarni ishlata dilar. Shevalarga xos so'zlar hududga mansublikni bildirish bilan birga asarga joziba, kitobxonga estetik zavq bag'ishlaydi.

Sheva adabiy til me'yorlaridan tashqarida, milliy til unsurlari sanaladi. Shuning uchun bunday unsurlar ilmiy, rasmiy va publitsistik usullarda qo'llanmaydi. Ammo ular oddiy so'zlashuv va badiiy uslubda muayyan bir me'yorda ishlataladi. Badiiy uslubda qo'llangan shevaga oid unsurlar yozuvchining uslubiy-estetik maqsadiga xizmat qiladi. Xususan, badiiy asarda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta'kidlash, mahalliy koloritni yaratish, hayotning realistik tasvirini chizishga yordam beradi²⁴. Har bir hudud ma'lum bir lahja orqali muloqot qiladi. Shulardan Xorazm vohasi aholisining asosiy qismi o'g'uz lahjasida muloqot qilishadi. Shevalarda va adabiy tilda ifodalagan tushunchalarda ayrim nozik farqlar mavjud bo'lganda ham yozuvchi shevadagi so'zni afzal ko'rishi mumkin²⁵.

²³ Собитова. З.К. Лингвокультурология. Учебник. – М.: Флинта. Наука, 2013. – С. 8-9.

²⁴ Mahmudov.N. 10-sinf ona tili darsligi. – Т.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – Б. 32.

²⁵ O'sha manba. – Б. 32.

Omon Matjon ham o‘z ijodida Xorazm shevalariga xos til birliklaridan o‘rinli foydalanish orqali shevalarimizning o‘ziga xos so‘z boyligini, xorazmliklarning shirin va diltortar lafzini ko‘rsatib bera oladi. So‘zimizning isboti tariqasida shoirning “Arosat” she’ridan parcha keltirishimiz mumkin:

*Bolaning ilk erkin bog ‘lama, ona,
Qo ‘ndoqda tug ‘ilgan go ‘dak arosat,
Ezmasin, bas, ulg ‘ay bo ‘bak arosat²⁶.*

Misralardagi *bo ‘bak* so‘zi Xorazm shevasiga oid so‘zlar bo‘lib, adabiy tilda *chaqalop* ma’nosida qo‘llanadi. Shoir ijodida alohida o‘rinni egallovchi “Ardaхiva” asari “Marsiya” sida ham sheva unsurlarini uchratamiz:

*...Qizil baytal sarak-sarak,
Yaproqsovuradi terak,
Yig ‘layotgan ohu garak.
Tog ‘lar yordam bermadimi?!*
*Olg ‘ili-bergili dunyosi,
Uyxon, sanga suvdan quvvat!²⁷*

Yuqoridagi misralarda uchragan *garak*, *sanga* so‘zlari shevaga oid so‘zlar bo‘lib adabiy tilda kerak, senga deb yuritiladi. Bu ham asarning estetik jozibasini oshirish uchun xizmat qilmoqda. Bundan tashqari:

*...Bilmadim, qonun kimniki,
Don kimniki, un kimniki,
Tanimda qonim kimniki,
Ul-qizim chuvillab qoldi²⁸*

Misralarda ifodalangan so‘zlar ichida alohida ajralib turgan, Xorazm shevasiga oid *ul* so‘zi adabiy tilimizda o‘g‘il deb ishlatiladi. Omon Matjon ijodini o‘raganar ekanmiz, asarlarini o‘qish bilan barobar shevadagi so‘zlar, shu yerning madaniyati haqida ham bilib olishimiz mumkin. Xorazm vohasi milliy an’analari va urf-odatlarini ko‘rsatuvchi qadriyatlarga misol sifatida Xorazm lazgisi, cho‘girmasi hamda raqslarini aytishimiz mumkin. Aynan shu qadriyatlarni shoir o‘zining “Xorazmlik do‘stimga maktub” she’rlarida ham aks ettirgan:

*Sibirmi? Xo ‘p! ular ko ‘rgan
Ko ‘ch-ko ‘chlarning ko ‘pini:
Qarang, yozda ham yechmaslar
Cho ‘girmani, guppini²⁹*

Cho ‘girma – qo‘y terisidan tikilgan katta telpak³⁰; qo‘y terisidan yumaloq shaklda qilingan erlar bosh kiyimi³¹; o‘sinq mo‘ynali teridan tikilgan Xorazm va Qoraqalpog‘istonda rasm bo‘lgan qalpoq³².

²⁶ Омон Матжон Ардахива. – Тошкент: Faafur Fулом, 2000. – Б. 55.

²⁷ O’sha manba. – В. 14.

²⁸ Омон Матжон Ардахива. – Тошкент: Faafur Fулом, 2000. – Б. 26.

²⁹ Омон Матжон Ўртамиизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б. 39.



Guppi – engli yoki engsiz paxtalik chopon³³; qalin paxtali chopon, to‘n³⁴. Bu so‘z ayollarning paxta solib, engsiz qilib tikilgan, asosan kuz-qish mavsumida kiyishga mo‘ljallangan kiyim. *Guppi* esa qalin paxtali ust kiyimidir. *Guppi* so‘zining etimologiyasiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, uni oldinlari faqat ishchilar kiyishgan. Shuning uchun ayrim izohlarda ishchilar kiyimi deb ham beriladi. *Cho‘girma*, *guppi* so‘zlari xorazm shevasiga mansub bo‘lib, adabiy tilda ekvivalenti mavjud emas. Aynan shoir ushbu so‘zlarni qo‘llash orqali mahalliy koloritni uyg‘unlashtirgan holda adabiy tilning boyishiga katta hissa qo‘shti.

Biz Omon Matjon ijodini o‘rganar ekanmiz, uning so‘z qo‘llashdagi mahorati, qanchalik boy tajribaga ega ekanligini anglash qiyin emas. Tahlil qilgan so‘zlarimiz Xorazm shevasiga xos so‘zlardir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoir she’rlari qaysi mavzuda bo‘lishidan qat’iy nazar, u inson mohiyati, uning ichki his-tuyg‘ularini baralla dildan madh etadi, kuylaydi. Uning she’rlaridagi sheva so‘zlari Xorazm koloritini aks ettirish, badiiyatni va ifodani go‘zal qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov.N. 10-sinf ona tili darsligi. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – В. 32.
2. Асомиддинова М. Кийим- кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 108.
3. Ишаев А. Қорақалпогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 172.
4. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива шеваси. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б.186.
5. Омон Матжон Ардахива. – Тошкент: Faafur Fulom, 2000. – Б. 26.
6. Омон Матжон Ўртамиизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – Б. 39.
7. Собитова. З.К. Лингвокультурология. Учебник. – М.: Флинта. Наука, 2013. – С. 8-9.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2020. – Б. 527.

30 Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива шеваси. – Урганч: Хоразм, 1999. – Б.186.

31 Ишаев А. Қорақалпогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 172.

32 Асомиддинова М. Кийим- кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 108.

³³ Асомиддинова М. Кийим- кечак номлари. – Тошкент: Фан, Б : 1981. – Б. 96.

34 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2020. – Б. 527.